

## TA'LIM-TARBIYA VA BARKAMOL SHAXS MASALASI

Niyazov Kamoladdin Sedametovich  
UrDU "TSvaMG" kafedrasida katta o'qituvchisi

Bekmetova Saida Hamid qizi  
UrDU "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 4- kurs talabasi

### Annotatsiya

Bolalar qanday bo'lib tug'ilishi uning ota-onasidan bo'lak hech kimga bog'liq emas. Lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, barkamol shaxs darajasiga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z umrini hayotiy me'yorlarga munosib o'tkazishi-avvalo maktabga bog'liq. Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligiga erishish yosh avlodning ma'naviyati, madaniyatini shakllantirishning kunningdolzarb vazifasidir.

**Kalit so'zlar:** Kadrlar tayyorlash Milliy dastur, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Barkamol shaxs, Xalqaro terrorizm, genotsid, rasizm, giyohvandlik, narkotraffik, separatizm, OITS, ekologik muammolar, fundamentalizm, millatchilik, milliy xudbinlik, guruhli xudbinlik, diniy aqidaparastlik

Biz huquqiy davlat maslagi ostida bashariyatning azaliy va inhu qadriyati-fuqarolik jamiyati g'oyasi haqidagi orzusi yotganligini va unga eltar yo'l hamisha ham bir xilda bo'lavermasligini teran anglashimiz barobarida, Mustaqillikning dastlabki kunlaridan Milliy Istiqloq g'oyasiga tayanib tuzilgan Kadrlar tayyorlash Milliy dastur va qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunni buyuk davlatchilikning porloq istiqbolining tamal toshi deb hisoblaymiz.

Mustaqillik sharofati bilan o'qituvchi-murabbiylarning turmush darajasini o'stirish, ularning ish haqlarini oshirish, yosh avlod tarbiyasidagi fidokorona faoliyatlarini qo'llab quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida, davlatimiz tomonidan qator qaror va farmonlar qabul qilindi, tarixda bo'lmagan voqea-o'qituvchilarning kasb bayrami mamlakat miqyosida nishonlanib, ushbu sana dam olish kuni sifatida belgilab qo'yildi. O'qituvchi kasbiga bo'lgan ehtirom va izzat bir necha karra oshdi. Maktabgacha, boshlang'ich va o'rta ta'lim tizimi muttasil isloh qilinib kelinmoqda. Bolalar qanday bo'lib tug'ilishi uning ota-onasidan bo'lak hech kimga bog'liq emas. Lekin har bir insonning yetarlicha rivojlanishi, barkamol shaxs darajasiga erishishi, o'ziga yoqqan mashg'ulot va hayotda o'z o'rnini topishi, o'z umrini hayotiy me'yorlarga munosib o'tkazishi-avvalo maktabga bog'liq. Har bir bola shaxsini



sevish, hurmat qilish va uning rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish lozim.

Jamiyatga nisbatan eng katta dushmanlik unga nisbatan beparvolikdir, degan edi allomalarning biri. Bugun jahon globalizatsiya manzarasining qoq markaziga insonni qo'ymoqda, xolbuki, jiddiy xavf-xatarlarning nishoni ham hamisha va har bir davrda aynan kishilik jamiyati bo'lib kelgani tarixdan ma'lum.

Mazkur muammolarning yagona yechimi esa, barkamol shaxs tarbiyasi ekani ham qo'hna davrlardan ma'lum.

Barkamol shaxs tushunchasi tarixan inson-sog'lom inson-axloqiy inson-komil inson-ma'rifatli va ilmi inson-ilg'or inson-etuk inson-faol inson, va nihoyat,- barkamol inson kabi uzviy aloqador va o'zaro bog'langan tushunchalar orqali shakllangan. Binobarin, bugungi kunda insoniyat tegrasidagi turli xil tahdidlar ushbu tushunchaning yanada ravshanroq ifoda etilishiga yo'l ochmoqda.

Xalqaro terrorizm, genotsid, rasizm, giyohvandlik, narkotraffik, separatizm, OITS, ekologik muammolar, fundamentalizm, millatchilik, milliy xudbinlik, guruhli xudbinlik, diniy aqidaparastlik va diniy riyokorlik bugungi yosh avlodni tarbiyalashdagi o'ziga xos jiddiy xavf-xatarlarni aks ettiradi.

Yoshlar o'ziga xos ikki turdagi qarama-qarshi holatni namoyon etadi: (1) mustaqillik, islohotlar, yangilanish, islohotlar mohiyatini chuqur anglash, islohotlar maqsad va mazmunini qo'llash, yangi munosabatlarga intilish, izlanish, o'z ijtimoiy mavqeiga ega bo'lish uchun harakat, o'zi va idrokiga ishonch, salohiyatini jamiyat taraqqiyoti uchun sarflash, ijtimoiy jur'at, anglangan faollik, huquqiy savodxonlik, erkin fikr yuritish, qat'iylik, shaxs sifatidagi komillikka erishish, o'z hayotini jamiyat rivoji bilan bog'lash, bunyodkorlik ishlariga tayyorlik, hayotga ochiq nazar bilan qarash va sof ko'ngillik.

(2) yoshlar o'rtasida boqimandalik, befarqlik, boshqaruv tizimlari va o'z kelajagiga ishonchsizlik, barcha narsani men uchun davlat yaratib berishi lozim degan asosga qurilgan kayfiyat, yot g'oyalar, ziddiyatlarga moyillik, o'z ijtimoiy holatidan norozilik, biron ishga yaroqsizlik, qarama-qarshi vaziyatlardan chiqib keta olmaslik, qonunlarni bilmaslik, bilimsizlik, tushkunlik.

Yuqoridagi holatlarning so'ngisi o'quvchi yoshlarning o'z kelajagini mustaqil rejalashtirishga jiddiy to'siqlar qo'yadi. Demak, o'z-o'zidan ma'lum bo'lib boradiki, bu illatlar bilan ilk bog'cha va maktab davridayoq kurashish kerak. Zero, sir emaski, tarbiya sohasida bugungi kun globalizatsiya jarayoni aynan ta'lim-tarbiya muassasalarini oldingi o'ringa qo'ymoqda. Tarbiyachi va o'qituvchining shaxsiy namunasi, fidoyiligi to'g'ri tashkil etiluvchi tarbiya-ta'lim jarayonigina



yosh avlodni go'daklik davridayoq to'g'ri yo'naltirilgan tarbiyada ushlashga imkon beradi.

Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasidagi mas'uliyatli vazifa: ta'lim-tarbiya jarayoniga halollik va poklik munosabatida bo'lish, o'quvchilarga mehr-muhabbatli e'tibor ko'rsatish, har bir darsni san'at asari darajasida o'tishga mos loyihalashtirish, global muammolardan kelib chiqib, tarbiyaviy maqsadlar qo'yish singari jihatlarni qamrovchi faoliyat egasiga aylanish vazifasi turadi. Xolbuki, murg'ak bolaning ko'nglida illatlarning ildiz otishiga eng avvalo oila va maktab, asosan sinf rahbari, o'qituvchisi yetarlicha sabab bo'la oladi. Bemehrlik bola xarakteridagi ko'plab salbiy qirralarni keltirib chiqaradi...

Qisqacha qilib aytganda, ta'lim beruvchi o'z ish faoliyatini o'quvchilarga nisbatan mehr ko'rsatishdan boshlashi lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин.-Т.: “Ўзбекистон”, 1998 йил.
2. Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. –Т.: “Ўқитувчи”, 1995 йил.

